

ILMIY-AMALIY JURNAL

Impact Factor: 5.394

ISSN 2181-0958

DOI 10.26739/2181-0958

YURISPRUDENSIYA

ЮРИСПРУДЕНЦИЯ | JURISPRUDENCE



7 JILD, 1

2026

YURISPRUDENSIYA

7 ЖИЛД, 1 СОН

ЮРИСПРУДЕНЦИЯ

ТОМ 7, НОМЕР 1

JURISPRUDENCE

VOLUME 7, ISSUE 1



Bosh muharrir:
Главный редактор:
Chief Editor:

SALAEV NODIRBEK
O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi
professor, Yuridik fanlar doktori.

Bosh muharrir o'rinbosari:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

RUSTAMBEKOV ISLAMBEK
Toshkent davlat yuridik universiteti
Yuridik fanlar doktori, professor.

TAHRIRIY HAY'AT A'ZOLARI | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ |

Mas'ul kotib | Ответственный секретарь | Responsible secretary:

DAVRONOV ATOBEK
Toshkent davlat yuridik universiteti jinoyat-protsessual huquqi kafedrasida o'qituvchisi,
PhD yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori.

KARIMOV FARHOD
Siyosiy fanlar doktori, dotsent,
A. Avloniy nomidagi
Malaka oshirish instituti prorektori;

BAZAROVA DILDORA
Toshkent davlat yuridik universiteti
yuridik fanlar doktori, professor;

IMOMOV NURILLO
Toshkent davlat yuridik universiteti fuqarolik huquqi
kafedrasida mudiri, yuridik fanlar doktori, professor;

KHAIRIEV NODIRJON
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
professori, yuridik fanlar doktori, dotsent;

NEMATOV JURABEK
Toshkent davlat yuridik universiteti
ma'muriy va moliyaviy huquq kafedrasida
dotsenti, yuridik fanlar doktori, dotsent;

ISMAILOV SHUKHRATJON
Toshkent davlat yuridik universiteti mehnat
huquqi kafedrasida mudiri, yuridik fanlar doktori;

KHABIBULLAEV DAVLATJON
Toshkent davlat yuridik universiteti fuqarolik
protsessual va xo'jalik protsessual huquqi kafedrasida
mudiri, yuridik fanlar nomzodi, professor;

OCHILOV KHASAN
Yuridik fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent;

IBROKHIMOV JAMSHID
Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD);

GAFUROVA NOZIMAKHON
Toshkent davlat yuridik universiteti xalqaro
huquq va inson huquqlari kafedrasida mudiri,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

NARZIEV OTABEK
Toshkent davlat yuridik universiteti xususiy
xalqaro huquq kafedrasida i.o. professori,
yuridik fanlar doktori;

MUSAEV BEKZOD
Toshkent davlat yuridik universiteti
konstitutsiyaviy huquq kafedrasida mudiri, yuridik fanlar
bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

MURATAEV SERIKBEK
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti dotsenti,
yuridik fanlar nomzodi;

KAMALOVA DILDORA
Yuridik fanlar doktori, professor;

YUSUPOV SARDORBEK
Toshkent davlat yuridik universiteti ma'muriy va
moliyaviy huquq kafedrasida mudiri, yuridik fanlar bo'yicha
falsafa doktori (PhD), yuridik fanlar doktori, dotsent;

KHUJAEVA SHOKHJAKHON
Toshkent davlat yuridik universiteti
intellektual mulk huquqi kafedrasida mudiri,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD);

CHORIEVA DILBAR
dotsent, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD).

Page Maker | Верстка | Sahifalovchi: Xurshid Mirzaxmedov

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Kiberjinoyatlarni huquqiy tartibga solish va intellektual mulk va mualliflik huquqini himoya qilishda prokuratura organlarining roli.....	5
Zaynabutdinov Said Axrorbek Ulug'bek o'g'li	
2. Haqiqatni aniqlash prinsipini takomillashtirish masalalari.....	20
Suyunboyev Ixom Oybek o'g'li	
3. Вояга етмаганлар пробацациясида давлат ва жамоат институтлари ҳамкорлиги.....	25
Абжалов Абдижаббор Махаммадиевич	
4. Dalillarning maqbulligini ta'minlashda tanib olish uchun ko'rsatish tergov harakatining ahamiyati.....	35
Ummatov Muhammadrasul Tursunovich	
5. Oilani mustahkamlash asoslari.....	43
Chuboyeva Ozodaxon Kuvonbekovna	
6. International legal aspects of the development of the trans-afghan transport corridor.....	49
Muhammadjonov Xojiakbar A'zamjon O'g'li, Firuza Khamdamova	
7. Терроризм билан боғлиқ жиноятларнинг юридик табиати.....	63
Нажмитдинов Нодирхон Амриллохонович	
8. Норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар ижросини таъминлаш этиш ва таъминлаш шакллари ва ўзига хос хусусиятлари.....	66
Якубов Мирзахид Турабаевич	
9. The Arbitration Agreement under Uzbek Law: Consent, Form, and the Limits of Party Autonomy.....	72
Nodirkhon Malikov	
10. Jamiyatda ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda ijtimoiy va huquqiy normalarning o'rni.....	86
Abdullayeva Firuza Sharipovna	
11. O'zbekiston Respublikasida kompyuter texnologiyalari vositasida sodir etiladigan jinoyatlarni oldini olishning huquqiy jihatlari.....	95
Ibroximova Malikaxon Alijon qizi Farruh Tashev Muzaffarovich	

HAQIQATNI ANIQLASH PRINSIPINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.20177949>

Suyunboyev Ilxom Oybek o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti mustaqil izlanuvchisi

E-mail: suyunboyevilhom994@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada jinoyat protsessual huquqining fundamental asoslaridan biri bo'lgan haqiqatni aniqlash prinsipi tahlil qilinadi. Dastlab haqiqat tushunchasining umumfalsafiy va lisoniy talqinlari ko'rib chiqilib, uning obyektiv, nisbiy, absolyut hamda formal turlari qiyoslanadi. Shuningdek, amaldagi Jinoyat-protsessual kodeksi va Oliy sud Plenumi qarorlari asosida haqiqatni aniqlashning huquqiy mexanizmlari hamda surishtiruvchi va sud organlarining bu boradagi majburiyatlari o'rganiladi. Maqola yakunida qonunchilikdagi mavhumliklarni bartaraf etish va odil sudlov sifatini oshirish maqsadida, amaldagi prinsip nomini "Obyektiv haqiqatni aniqlash prinsipi"ga o'zgartirish bo'yicha ilmiy-huquqiy taklif ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: Jinoyat protsessi, isbotlash nazariyasi, haqiqat tushunchasi, obyektiv haqiqat, formal haqiqat, haqiqatni aniqlash prinsipi, JPK 22-moddasi, huquqiy taklif.

ISSUES OF IMPROVING THE PRINCIPLE OF ESTABLISHING THE TRUTH

Suyunboev Ilkhom Oybek o'g'li

Independent Researcher, Tashkent State University of Law

Email: suyunboyevilhom994@gmail.com

Abstract: This article analyzes the principle of establishing the truth, which is one of the fundamental pillars of criminal procedural law. Initially, it explores the general philosophical and linguistic interpretations of the concept of "truth," comparing its objective, relative, absolute, and formal types. Furthermore, based on the current Code of Criminal Procedure and the resolutions of the Supreme Court Plenum, the legal mechanisms for establishing the truth and the obligations of investigative and judicial bodies in this regard are examined. At the conclusion of the article, a scientific and legal proposal is put forward to rename the existing principle to the "Principle of Establishing Objective Truth" to eliminate ambiguities in legislation and improve the quality of justice.

Keywords: Criminal procedure, theory of evidence, concept of truth, objective truth, formal truth, principle of establishing the truth, Article 22 of the CCP, legal proposal.

ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРИНЦИПА УСТАНОВЛЕНИЯ ИСТИНЫ

Суюнбоев Илхом Ойбек ўғли

Независимый исследователь, Ташкентский государственный юридический университет

Электронная почта: suyunboyevilhom994@gmail.com

Аннотация: В данной статье анализируется принцип установления истины, являющийся одной из фундаментальных основ уголовно-процессуального права. Первоначально рассматриваются общеправовые и лингвистические интерпретации понятия «истина», сопоставляются ее объективные, относительные, абсолютные и формальные виды. Далее на основе действующего Уголовно-процессуального кодекса и постановлений Пленума Верховного суда изучаются правовые механизмы установления истины и обязанности органов дознания и суда в этой сфере. В завершении статьи, в целях устранения неопределенностей в законодательстве и повышения качества правосудия, выдвигается научно-правовое предложение о переименовании существующего принципа в «Принцип установления объективной истины».

Ключевые слова: Уголовный процесс, теория доказательств, понятие истины, объективная истина, формальная истина, принцип установления истины, статья 22 УПК, правовое предложение.

Haqiqat – (arabcha chinlik, rostlik, to‘g‘riлик; chin, to‘g‘ri gap; tub ma’no) 1) chindan ham bo‘lgan, voqelikka mos holat, narsa; 2) ma’lum tartib-qoida, qonunlarga mos ish, xatti-harakat, holat; rostlik, to‘g‘riлик; 3) kishi ongida voqelikning, ob’ektiv borliqning haqqoniy, to‘g‘ri aks etishi; 4) rostligi fanniy yo‘l bilan isbotlangan, tajribada sinalgan holat, hukm, fikr; 5) ilohiyatni (Xudoning borligini) o‘z-o‘zidan anglashiladigan, isbot talab qilmaydigan, shubhadan tashqari, aniq bir hodisa deb tushunish¹.

Jinoyat protsessida haqiqatni aniqlash deganda, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud tomonidan jinoyat ishining haqiqiy holatlarini voqelikka muvofiq tarzda to‘la, xolisona, aniq va inkor qilib bo‘lmaydigan darajada aniqlanishi tushuniladi².

Jinoyat ishi yurituvda haqiqatni aniqlash prinsipi surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud zimmasiga jinoyat yuz berganligini, uning sodir etilishida kim aybdorligini, shuningdek, u bilan bog‘liq barcha holatlarni aniqlash majburiyatini yuklaydi. Jinoyat ishi yurituvda haqiqatni aniqlash barcha protsessual tergov va sud harakatlarining negizida yotadi. Ya’ni, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud amalga oshiradigan barcha harakatlar avvalambor, haqiqatni aniqlashga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

Sharhlanayotgan moddaning birinchi qismiga muvofiq, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud jinoyat yuz berganligini, uning sodir etilishida kim aybdorligini, shuningdek, u bilan bog‘liq barcha holatlarni aniqlashi shart.

¹ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5-jild. A.Madvaliev tahriri ostida. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – B.518.

² Xayriyev N.I. Jinoyat protsessida haqiqatni aniqlash prinsipini amalga oshirish muammolari: Yurid. fan. nomz. ... diss. avtoref. – Toshkent: TDYI, 2011. – B.8.

Ta'kidlash lozimki, bunday talab Oliy sud Plenumining qator qarorlarida o'z ifodasini topgan. Xususan, Oliy sud Plenumining 1997-yil 22-avgustdagi "Sud tomonidan jinoyat ishlarini birinchi bosqich sudida muhokama etish jarayonida protsessual qonunchilikka rioya qilinishi to'g'risida"gi 12-son Qarori 1-bandining birinchi xatboshisiga ko'ra, jinoyat ishlarini sud muhokamasi jarayonida protsessual qonunchilikka qat'iy amal qilishning zarur, faqat unga aniq va og'ishmay amal qilish ishning holatini har tomonlama to'liq va xolisona tekshirishni, jinoyatlarning sodir etilishiga imkon yaratuvchi sharoit va sabablarni aniqlashni va sud jarayonining tarbiyaviy ta'sirini ta'minlaydi¹.

Oliy sud Plenumining 2000-yil 15-sentyabrdagi "Voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi 21-son Qarorining 1-bandida qayd etilishicha esa voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlarni ko'rishda, ish bo'yicha isbotlanishi lozim bo'lgan holatlarni sinchkovlik bilan, har tomonlama to'la va xolisona tekshirib chiqib, qilmishning ijtimoiy xavflilik darajasini va sudlanuvchining shaxsini e'tiborga olgan holda aniqlangan haqiqiy holatlar va dalillar majmuasiga to'g'ri baho berilib, odillik va insonparvarlik tamoyillariga amal qilgan holda qonunda ko'rsatilgan xususiyat va imtiyozlardan to'la foydalanishga e'tibor qaratilishi lozim².

Oliy sud Plenumining 2003-yil 19-dekabrdagi "Gumon qilinuvchi va ayblanuvchini himoya huquqi bilan ta'minlashga oid qonunlarni qo'llash bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi 17-son Qarorining 4-bandiga ko'ra esa sudlar ish bo'yicha isbotlanishi lozim bo'lgan barcha holatlar albatta sinchkovlik bilan, har tomonlama, to'liq va xolisona tekshirilishi zarurligi haqidagi qonun talablariga og'ishmay rioya etishlari, ayblanuvchini nafaqat fosh etadigan, balki oqlaydigan, shuningdek, uning javobgarligini yengillashtiradigan va og'irlashtiradigan holatlarni ham aniqlashlari shart³. Ish bo'yicha haqiqatni aniqlash uchun faqat Jinoyat-protsessual kodeksida belgilangan tartibda to'plangan, tekshirilgan va baholangan dalillardangina foydalanish mumkin. Protsessual qonun talablari buzilgan holda to'plangan dalillar ayblov asosiga qo'yilishi mumkin emas⁴.

Oliy sud Plenumining 2004-yil 24-sentyabrdagi "Qasddan odam o'ldirishga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi 13-son Qarorining 1-bandiga muvofiq esa sudlar qasddan odam o'ldirishga oid ishlarni ko'rayotganda, ish holatlarini sinchkovlik bilan, har tomonlama, to'la va xolisona tekshirish lozimligi to'g'risidagi qonun talablariga qat'iy amal qilishlari shart⁵. Har bir ish bo'yicha aybning shakli, Qasddan odam o'ldirganlik sabablari, maqsadi va usuli aniqlanishi, shuningdek, qilmishni to'g'ri huquqiy baholash va aybdorga adolatli jazo tayinlash uchun ahamiyatga molik boshqa holatlar tekshirilishi kerak.

Haqiqatni aniqlash prinsipining yana bir muhim talabi – ishda yuzaga keladigan har qanday masalani hal qilishda ayblanuvchini yoki sudlanuvchini ham fosh

¹ <https://sud.uz/plenum/documents-criminal/> (murojaat sanasi: 28.01.2026)

² <https://www.tergov.uz/uz/menu/postanovleniya-plenuma-verhovnogo-suda> (murojaat sanasi: 28.01.2026)

³ <https://lex.uz/search/all?searchtitle=plenum> (murojaat sanasi: 28.01.2026)

⁴ Saxaddinov S. Jinoyat-protsessual kodeksiga sharhlar. Umumiy qism (ilmiy-amaliy sharx). – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2014. – B. 38.

⁵ <https://sud.uz/plenum/> (murojaat sanasi: 28.01.2026)

qiladigan, ham oqalaydigan, shuningdek, uning javobgarligini ham yengillashtiradigan, ham og'irlashtiradigan holatlarni aniqlash va hisobga olish.

Shu sababli jinoyat ishini har tomonlamalik, to'lalik va xolisonalik nuqtai nazaridan tergov qilish haqiqatni aniqlash usuli va jinoyat protsessi vazifalari bajarilishiga erishish kafolati hisoblanadi. Jinoyat ishining barcha holatlarini har tomonlama va to'la tekshirish qoidasini amalga izchil tatbiq etish nafaqat sodir etilgan jinoyat manzarasini tiklash, balki unga to'g'ri yuridik baho berish, ayblanuvchining aybdorlik darajasi va xususiyatini aniqlash, unga sodir etilgan qilmishning og'irlik darajasi va aybdorning shaxsiga muvofiq jazo tayinlash, jabrlanuvchi foydasiga undirilishi lozim bo'lgan unga yetkazilgan ziyon miqdorini aniqlash imkoniyatini beradi, ya'ni qonuniy va asosli hukm chiqarishning zaruriy sharti hisoblanadi¹.

Haqiqat tushunchasi juda keng ma'nodagi tushuncha ekanligini mazkur soha bo'yicha ilmiy izlanish olib borgan olimlar ham aytib o'tgan. Haqiqatning quyidagi **obyektiv**, **nisbiy** va **absolyut** turlari mavjud bo'lib, ularga to'xtalib o'tamiz.

Jinoyat protsessida **obyektiv haqiqat** tushunchasi o'z ichiga tergov, prokuratura va sud organlarining jinoyat ishi bo'yicha aniqlangan holatlar to'g'risidagi ishonchli xulosalarini qamrab oladi. Obyektiv haqiqat real bo'lgan taqdirdagina isbotlash protsessi maqsadiga erishiladi.

Jinoyat protsessidagi nisbiy haqiqat, ya'ni jinoyat protsessida bironta jinoyat ishining isbotlanishi davomida aniqlangan holatlar tashqi dunyo hodisalari bilan bog'liq bo'lmaydi va yuridik, daliliy ahamiyat kasb etmaydi.

Jinoyat protsessidagi absolyut haqiqatda esa jinoyat ishi bo'yicha aniqlangan holatlarning barchasi bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Ayrim hollarda haqiqat konkret aniqlanmaganda, u ham nisbiy, ham absolyut bo'ladi.

Haqiqat mohiyati obyektiv, reallikdir va u biluvchi subyektning xohish va irodasiga bog'liq emas. Shu sababli haqiqatni odatda obyektiv haqiqat deb nomlash to'g'ri bo'ladi. Yuqorida keltirilgan haqiqat talqini klassik yoki oddiy talqin deb ataladi. Ayrim jihatlarni ko'rib chiqishda haqiqatning boshqa talqinlaridan ham foydalanish mumkin va maqsadga muvofiqdir. Ularga konvensional konsepsiya va formal nazariya yoki mantiqiy yoxud semantik nazariya kiradi².

Konvensional haqiqat deb konvensiya yoki kelishuv asosida tan olinadigan haqiqatga aytiladi. Fikr voqelikka mos kelgani uchun emas, balki kishilar uni haqiqat deb hisoblashga kelishib olganliklari uchun haqiqiy deb topiladi. Jinoyat protsessida aybi isbotlanmaganda shaxsni aybsiz deb topishni konvensional haqiqatga misol qilib keltirsa bo'ladi. Bu shaxs obyektiv haqiqat aniqlangani uchun emas, balki postulat – **aybsizlik prezumpsiyasi** va undan kelib chiquvchi qoida – "isbotlanmagan ayb isbotlangan aybsizlik bilan teng" degan qoida shart qilib qo'yilgani uchun oqlanadi.

Formal haqiqat deb esa obyektiv voqelikka mos keluvchi haqiqat emas, balki oldindan belgilangan shartlar, qoidalarga mos keluvchi haqiqatga aytiladi. Sobiq

¹ Saxaddinov S. Jinoyat-protsessual kodeksiga sharhlar. Umumiy qism (ilmiy-amaliy sharx). – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2014. – B. 40.

² Tulaganova G.Z., Bazarova D.B. Dalillar nazariyasi. Darslik. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2025. – B. 18-19.

shoʻrolar davrida formal haqiqat moddiy haqiqatga qarshi qoʻyilar va reaksiya institut sifatida qattiq qoralanar edi.

Ammo formal haqiqatning isbot qilish jarayonidagi roli haqida hech boʻlmasa ikki sababga koʻra gapirish mumkin:

1. **Birinchidan**, jinoyat-protsessual isbot qilishda formal holatlarning roli haqiqatda juda katta. Ayniqsa, bu dalillar maqbulligini baholashga tegishli boʻlib, bu yerda shakl masalalari hal qiluvchi ahamiyatga egadir, bilaks dalillarning obyektiv voqelikka mos kelishi emas.

2. **Ikkinchidan**, bu masala sudning isbot qilishdagi rolini aniqlashtirish uchun ham ahamiyatga egadir. Agar sud bu jarayonda passiv boʻlsa, agar uning zimmasiga obyektiv haqiqatni aniqlash uchun choralar koʻrish majburiyati yuklanmasa, bu oʻrinda, albatta, obyektiv haqiqat toʻgʻrisida emas, balki formal haqiqat toʻgʻrisidagina gapirish mumkin.

Har holda jinoyat-protsessual isbot qilishda formal haqiqat kategoriyasini butunlay inkor qilish ham toʻgʻri emas¹.

Xulosa qilib aytadigan boʻlsak, Jinoyat-protsessual qonunchiligida **haqiqatni aniqlash prinsipi** nafaqat protsessual vazifa, balki odil sudlovning sifati va qonuniyligini taʼminlovchi fundamental poydevordir. Oʻzbekiston Respublikasi JPKning 22-moddasida mustahkamlangan ushbu qoida surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud zimmasiga ishning barcha holatlarini sinchkovlik bilan, har tomonlama, toʻla va xolisona tekshirish majburiyatini yuklaydi.

Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, amaldagi normada aks etgan “haqiqatni aniqlash” tushunchasi huquqiy tabiatiga koʻra shunchaki mavhum tushuncha emas, balki aniqlangan holatlarning obyektiv voqelikka aynan muvofiq boʻlishini talab etadi. Zero, isbotlash jarayonida “haqiqat” tushunchasining konvensional (kelishuvga asoslangan) yoki formal koʻrinishlari bilan cheklanish, shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilishda xatoliklarga olib kelishi mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, jinoyat protsessida isbotlash jarayonining sifatini oshirish va huquqni qoʻllovchi organlar masʼuliyatini yanada aniqlashtirish maqsadida quyidagi taklif ilgari suriladi:

Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 22-moddasi nomini va undagi “haqiqatni aniqlash” atamasini “Obyektiv haqiqatni aniqlash” deb oʻzgartirish maqsadga muvofiq.

Yuqoridagi taklifni quyidagilar bilan asoslash mumkin:

1. **Obyektivlik kafolati:** “Obyektiv haqiqat” atamasi tergov va sud organlaridan voqelikni subyektiv qarashlardan xoli ravishda, aslligicha tiklashni qatʼiy talab qiladi.

2. **Nazariy va amaliy muvofiqlik:** Huquqiy adabiyotlarda va Oliy sud Plenumi qarorlarida ish holatlarini “haqiqiy holatga muvofiq” aniqlash talabi qoʻyilishi mazkur prinsipning aynan obyektiv xarakterga ega ekanligini tasdiqlaydi.

3. **Xatoliklarning oldini olish:** Bu oʻzgarish formal haqiqat bilan cheklanib qolish xavfini kamaytiradi va har qanday shubhani ayblanuvchining foydasiga talqin qilish bilan birga, aybdorlik masalasida faqat inkor qilib boʻlmaydigan faktlarga tayanish tizimini mustahkamlaydi.

¹ Tulaganova G.Z., Bazarova D.B. Dalillar nazariyasi. Darslik. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2025. – B. 28-30.

Xulosa qilib aytganda, haqiqatni aniqlash prinsipini “obyektiv haqiqat” darajasida qonuniy mustahkamlash, jinoyat ishlari bo'yicha chiqariladigan hukmlarning adolatli, asosli va qonuniy bo'lishining eng muhim kafolati bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. Elektron manzil: <https://lex.uz/docs/-111460> (murojaat sanasi: 25.01.2026)
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi. Elektron manzil: <https://lex.uz/docs/-111460> (murojaat sanasi: 26.01.2026)
3. Saxaddinov S. Jinoyat-protsessual kodeksiga sharhlar. Umumiy qism (ilmiy-amaliy sharx). – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2014.
4. Tulaganova G.Z., Bazarova D.B. Dalillar nazariyasi. Darslik. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2025.
5. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5-jild. A.Madvaliev tahriri ostida. – Toshkent: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.
6. Xayriyev N.I. Jinoyat protsessida haqiqatni aniqlash prinsipini amalga oshirish muammolari: Yurid. fan. nomz. ... diss. avtoref. – Toshkent: TDYI, 2011.

Foydalanilgan internet saytlari:

1. <https://sud.uz/plenum/documents-criminal/> (murojaat sanasi: 28.01.2026).
2. <https://www.tergov.uz/uz/menu/postanovleniya-plenuma-verhovnogo-suda> (murojaat sanasi: 28.01.2026).
3. <https://lex.uz/search/all?searchtitle=plenum> (murojaat sanasi: 28.01.2026).
4. <https://sud.uz/plenum/> (murojaat sanasi: 28.01.2026).

YURISPRUDENSIYA

7 ЖИЛД, 1 СОН

ЮРИСПРУДЕНЦИЯ

ТОМ 7, НОМЕР 1

JURISPRUDENCE

VOLUME 7, ISSUE 1

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадqiqот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000